XALQ DEPUTATLARI AMUDARYO TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 3 - aprel VI-59-35-13-181-K/23 Amudaryo tumani hokimligi

Mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag`larning sarflanishini nazorat qilish va ochiqlikni ta`minlash to'g'risida

Amudaryo tumani budjet ma’lumotlarining ochiqligi va oshkoraligini yanada oshirish, budjet mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi ustidan xalq deputatlari tuman Kengashi hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 28-fevraldagi 1107-sonli qaroriga muvofiq “Mahalliy budjetning 2023-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida”gi tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 126-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. “Mahalliy budjetning 2023-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida”gi tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining hisoboti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy budjetning 2023-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘larni sarflash yo'nalishlari ilovaga muvofiq ma`qullansin.

3. Tuman Moliya bo‘limi (U.Bekniyazov) tuman G‘aznachilik bo‘linmasi bilan birgalikda zarur mablag‘larni o‘z vaqtida ajratish va belgilangan tartibda moliyalashtirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni

rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.YO‘LDASHEV**

Xalq deputatlari Amudaryo tuman
Kengashining
2023 yil 3 apreldagi
VI-59-35-13-181-K/23-son qaroriga
1-ilova

Mahalliy byudjetning 2023-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘larni sarflash yo'nalishlari

T/r	Mablag‘larni sarflash yo'nalishlari	Ajratiladigan mablag' summasi (mln.so‘mda)
1	“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	22.0
2	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	22.0
3	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	44.0
4	E-IJRO, E-QAROR dasturlari va hokimlik internet abonent to‘lovlari uchun	57.4
	Jami	**145.4**